

## TRANSPORT XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Rajabov Qurbon Sulaymonovich**

Buxoro davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, uning milliy iqtisodiyot, hududlararo aloqalar va xalqaro savdo jarayonlaridagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda transport xizmatlarining raqobatbardoshligi xizmat sifati, tashish tezligi, xavfsizlik, tarif siyosati, logistika infratuzilmasi, multimodal tashuvlar, raqamli texnologiyalar va mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, elektron hujjat aylanishi, GPS monitoring, Big Data va sun‘iy intellektga asoslangan boshqaruv yechimlarini joriy etish transport xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqolada transport xizmatlari bozorida barqaror raqobat ustunligini shakllantirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va innovatsion logistika mexanizmlarini keng qo‘llash zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** transport xizmatlari, raqobatbardoshlik, logistika tizimi, transport infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar, multimodal tashuvlar, xizmat sifati, innovatsion boshqaruv, tranzit salohiyati, mijozlarga yo‘naltirilgan xizmat.

### Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты повышения конкурентоспособности транспортных услуг, а также их значение в развитии национальной экономики, межрегиональных связей и международной торговли. В исследовании обосновано, что конкурентоспособность транспортных услуг тесно связана с качеством обслуживания, скоростью перевозок, безопасностью, тарифной политикой, логистической инфраструктурой, мультимодальными перевозками, цифровыми технологиями и клиентоориентированной системой управления. Особое внимание уделяется модернизации транспортно-логистической системы, внедрению электронного документооборота, GPS-мониторинга, Big Data и управленческих решений на основе искусственного интеллекта. В статье научно обоснована необходимость развития инфраструктуры, приведения качества услуг в соответствие с международными стандартами и широкого применения инновационных логистических механизмов для формирования устойчивых конкурентных преимуществ на рынке транспортных услуг.

**Ключевые слова:** транспортные услуги, конкурентоспособность, логистическая система, транспортная инфраструктура, цифровые технологии, мультимодальные перевозки, качество услуг, инновационное управление, транзитный потенциал, клиентоориентированный сервис.

## Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of increasing the competitiveness of transport services and highlights their importance for national economic development, interregional connectivity, and international trade. The study substantiates that the competitiveness of transport services is closely linked to service quality, transportation speed, safety, pricing policy, logistics infrastructure, multimodal transportation, digital technologies, and customer-oriented management systems. Particular attention is paid to the modernization of the transport and logistics system, the introduction of electronic document management, GPS monitoring, Big Data analytics, and artificial-intelligence-based management solutions. The article scientifically justifies the need to develop transport infrastructure, align service quality with international standards, and widely apply innovative logistics mechanisms in order to create sustainable competitive advantages in the transport services market.

**Keywords:** transport services, competitiveness, logistics system, transport infrastructure, digital technologies, multimodal transportation, service quality, innovative management, transit potential, customer-oriented service.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda logistika tizimlarining raqamli transformatsiyasi transport xizmatlari sohasida raqobat muhitining keskin kuchayishiga olib kelmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda transport tizimi nafaqat yuk va yo'lovchilarni tashish vositasi, balki hududlar iqtisodiy integratsiyasi, investitsion jozibadorlik va milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi strategik infratuzilma sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish masalasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanoqda. Bugungi kunda transport xizmatlari bozori sifat, tezkorlik, xavfsizlik, xarajatlar samaradorligi, logistika integratsiyasi va raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, elektron tijoratning rivojlanishi, global ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi hamda iste'molchilar talablarining o'zgarishi transport xizmatlariga nisbatan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Natijada transport korxonalarini o'z faoliyatida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini, aqlli logistika tizimlarini, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarini keng joriy etishga intilmoqda.

Transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ushbu sohaning ko'p tarmoqli va murakkab iqtisodiy tizim ekanligi bilan izohlanadi. Mazkur jarayonda infratuzilma sifati, multimodal transport tizimlari, tranzit salohiyati, logistika markazlari faoliyati, tarif siyosati, ekologik barqarorlik va xizmat ko'rsatish sifati muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Transport xizmatlari bozori yuqori darajadagi texnologik o'zgarishlarga moslashishni ham talab etadi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham transport-logistika tizimini rivojlantirish, tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro transport koridorlariga integratsiyalash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini tashkil etish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali transport xizmatlari

samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Transport va axborot logistikasining o'zaro bog'liqligi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy manbalar transport jarayonlarini samarali tashkil etishda axborot oqimlarini boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va logistika tizimlarini integratsiyalashning ahamiyatini keng yoritib beradi.

Logistika nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida Bowersox, Closs va Cooperning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Mualliflar logistika tizimini moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarining yagona boshqaruv mexanizmi sifatida tavsiflab, axborot almashinuvi logistika samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini asoslaganlar [8]. Christopher tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvida axborot texnologiyalarining strategik ahamiyati yoritilib, raqamli integratsiya korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan [9].

Ta'minot zanjiri boshqaruvi bo'yicha Chopra va Meindl logistika jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini berishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [10]. Ularning fikricha, transport va axborot oqimlarining uyg'un boshqarilishi logistika tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi.

Mahalliy olimlardan To'xtayev va Xolmurodov O'zbekiston transport-logistika tizimining rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatganlar[5]. Ularning tadqiqotlarida mamlakatning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish va logistika xizmatlari sifatini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida baholangan.

Logistika tizimlarining raqamli transformatsiyasi ilmiy tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biriga aylandi. Deloitte ekspertlari logistika jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini berishini ta'kidlaydi[14]. McKinsey Global Institute tadqiqotlarida esa avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar logistika sohasida mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda yangi kompetensiyalarga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishi qayd etilgan[11].

Jahon bankining Logistics Performance Index (LPI) hisobotlari logistika tizimlari samaradorligini baholashda muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi[6]. Mazkur hisobotlarda bojxona jarayonlari, transport infratuzilmasi sifati, logistika xizmatlari darajasi va yuklarni kuzatish imkoniyatlari mamlakatlarning logistika salohiyatini

belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, World Economic Forum tadqiqotlarida transport-logistika tizimlarining ekologik barqarorligini ta'minlash, yashil logistika tamoyillarini joriy etish va energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash zamonaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari sifatida baholangan[13].

O'zbekiston Respublikasida transport va axborot logistikasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Raqqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi[1], axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga oid farmonlar[2], transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qarorlar [3] hamda transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [4] mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ilmiy-amaliy asosini mustahkamlab bermoqda.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llaniladi. Tadqiqotning metodologik asosi transport xizmatlari bozorini iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilish, uning tarkibiy qismlari, rivojlanish omillari va raqobat ustunliklarini shakllantiruvchi mexanizmlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usulidan foydalanilib, transport xizmatlari infratuzilma, logistika, tarif siyosati, xizmat sifati, raqqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik va mijozlar ehtiyojlari bilan o'zaro bog'liq yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuv transport xizmatlari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni kompleks baholash imkonini beradi. Qiyosiy tahlil usuli orqali transport xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar, milliy amaliyot va mavjud boshqaruv mexanizmlari solishtiriladi. Bu usul yordamida transport xizmatlari sifatini oshirish, logistika jarayonlarini optimallashtirish, xizmat ko'rsatish tezkorligini ta'minlash va raqqamli platformalardan foydalanish bo'yicha samarali yondashuvlar aniqlanadi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Transport xizmatlari raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi globallashtirish va texnologik rivojlanish davrida iqtisodiyotning barqarorligi va milliy infratuzilmaning rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega murakkab va ko'p qatlamli jarayondir. Bu jarayon nafaqat xizmatlar sifatini oshirish, balki tizimning barcha elementlarini uyg'unlashtirish, raqobat muhitini yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash kabi ko'p tomonlama strategik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, raqobatbardoshlikni ta'minlash tamoyillari transport xizmatlarining sifatli va samarali bo'lishida asosiy nazariy va amaliy mezon sifatida qaraladi.

Avvalo, raqobatbardoshlikni ta'minlashda bozor mexanizmlarining samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bozor qatnashchilari o'rtasida erkin va shaffof raqobatni shakllantirish zarur. Raqobat muhitining sog'lom bo'lishi monopoliyalarning yuzaga kelishining oldini oladi, bu esa xizmatlar sifatining oshishiga, narxlarning pasayishiga va iste'molchilar manfaatlarining himoya

qilinishiga olib keladi<sup>1</sup>. Transport xizmatlari bozorida monopoliyaga qarshi kurashish uchun davlat tomonidan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlar joriy etilishi shart. Bu, o'z navbatida, xizmatlar ko'rsatish sifatining oshishini rag'batlantiradi va yangi raqobatchilarni bozorga jalb qiladi.

Ikkinchi tamoyil sifatida, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni rag'batlantirishni ko'rsatish mumkin. Zamonaviy iqtisodiy tizimda innovatsiyalar raqobatbardoshlikning eng muhim manbalaridan biridir. Transport xizmatlarida innovatsiyalar - bu nafaqat yangi texnologiyalar, balki xizmatlarni boshqarish usullari, logistika tizimlari va mijozlarga xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi<sup>2</sup>. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun kompaniyalar innovatsion yechimlarni joriy qilishda faol bo'lishlari zarur. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun grantlar ajratish va soliq imtiyozlari berish - bu jarayonni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi tamoyil - mijozlarga yo'naltirilganlik va sifatni doimiy takomillashtirish. Transport xizmatlari iste'molchilarining ehtiyojlari doimiy ravishda o'zgarib boradi. Shu sababli, kompaniyalar va tashkilotlar mijozlarning fikrini doimiy ravishda o'rganib borishi, xizmatlarni ularning talablariga mos ravishda takomillashtirishi zarur<sup>3</sup>. Bu tamoyil raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki xizmat sifati va mijoz qoniqishi to'g'ridan-to'g'ri transport sohasida raqobat pozitsiyasiga ta'sir qiladi. Mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatish, shikoyatlarni tezkor hal qilish va individual ehtiyojlarga mos xizmatlarni taklif etish orqali raqobatchilar ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

To'rtinchi tamoyil - resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash. Transport tizimida xarajatlar ko'p hollarda yoqilg'i, infratuzilma xizmatlari, texnik xizmat ko'rsatish va boshqaruvga sarflanadi. Shu sababli, resurslarning optimal taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi (Button, 2010)<sup>4</sup>. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish tizimlari katta rol o'ynaydi. Misol uchun, yo'nalishlarni optimallashtirish va transport vositalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari xizmatlarni tez va arzon yetkazishga imkon beradi, natijada xarajatlar kamayadi va xizmat sifati yaxshilanadi.

Beshinchi tamoyil - davlat regulyatsiyasi va qonunchilik bazasining samarali ishlashi. Raqobatbardosh bozor yaratish uchun davlat siyosati muhim omil bo'lib, u raqobatni rag'batlantiruvchi va monopoliyalarni cheklovchi qonunchilikni shakllantiradi.

---

<sup>1</sup> Porter, M. E. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: Free Press.

<sup>2</sup> Schumpeter, J. A. (1942). *Capitalism, Socialism and Democracy*. New York: Harper & Brothers.

<sup>3</sup> Zeithaml, V. A., Parasuraman, A., & Berry, L. L. (1985). Problems and Strategies in Services Marketing. *Journal of Marketing*, 49(2), 33–46. <https://doi.org/10.1177/002224298504900204>

<sup>4</sup> Button, K. (2010). *Transport Economics* (3rd ed.). Cheltenham, UK: Edward Elgar Publishing. Retrieved from <https://www.e-elgar.com/shop/gbp/transport-economics-9781847208207.html>

Davlat transport xizmatlari infratuzilmasining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi, shuningdek, bozor ishtirokchilari uchun shaffof va adolatli qoidalar yaratishi kerak<sup>1</sup>. Raqobat muhitining barqarorligi uchun, davlat regulyatsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik omillarni ham hisobga olishi lozim.

Oltinchi tamoyil - barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta’minlash. So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolar va atrof-muhitning ifloslanishi transport sohasida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirdi. Shu sababli, transport xizmatlarining raqobatbardoshligi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik tozalikka ham bog‘liq<sup>2</sup>. Raqobatbardoshlikni oshirishda ekologik jihatdan qulay va energiya tejankor transport vositalarini joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va yashil texnologiyalarni qo‘llash strategiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu nafaqat ijtimoiy mas’uliyatni ko‘rsatadi, balki uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi.

Yettinchi tamoyil - axborot texnologiyalari va raqamlashtirishni keng joriy etish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar transport xizmatlarini boshqarish va tashkil etishda inqilobiy o‘zgarishlarni ta’minladi. Axborot tizimlari yordamida yo‘lovchi va yuklarni kuzatish, yo‘nalishlarni dinamik ravishda optimallashtirish, mijozlarga real vaqtda ma’lumot yetkazish mumkin bo‘ldi<sup>3</sup>. Raqamlashtirish raqobatbardoshlikni oshirishda samaradorlikni yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi.

Ushbu tamoyillarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va tizimli yondashuv orqali qo‘llash transport xizmatlari sohasida mustahkam raqobatbardosh tizim yaratishga xizmat qiladi. Har bir tamoyil o‘z-o‘zidan emas, balki boshqa tamoyillar bilan birgalikda, o‘zaro ta’sirda faoliyat ko‘rsatadi, natijada kompleks iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga olib keladi.


1-rasmda transport xizmatlari raqobatbardoshligini ta’minlash tamoyillari o‘zaro bog‘lanishi va ta’sir doirasi ko‘rsatilgan.

---


<sup>1</sup> Islomov, R. (2019). State Regulation and Competitiveness in the Transport Services Sector of Uzbekistan. Journal of Transport Economics, 12(2), 45-60. Available at: <https://jt-economic.uz/2019/issue2/islomov.pdf>

<sup>2</sup> Button, K. (2010). Transport Economics (3rd ed.). Edward Elgar Publishing. Available at: <https://www.elgar.com/shop/gbp/transport-economics-9781847208207.html>

<sup>3</sup> OECD (2019). Transport and Environment: Policy and Practice. Organisation for Economic Co-operation and Development. Retrieved from <https://www.oecd.org/transport/transport-and-environment-policy.htm>



**1-rasm. Transport xizmatlari raqobatbardoshligi<sup>1</sup>.**



**2-rasm. Transport xizmatlari raqobatbardoshligi amalga oshirishning strategik yondashuvlari<sup>2</sup>.**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Har bir tamoyilni yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi strategik yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. Integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari joriy qilish orqali xizmatlar sifatini va samaradorlikni doimiy nazorat qilish. Transport xizmatlari sifatining doimiy monitoringi va nazoratini amalga oshirish uchun integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari muhim ahamiyatga ega. Bunday tizimlar xizmat ko'rsatish jarayonlarini yagona platformada boshqarish, xatoliklarni tez aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada, xizmatlar sifati oshib, foydalanuvchilarning talablariga yanada moslashuvchanlikka erishiladi.

2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmani yangilash: Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etishda davlat-xususiy sheriklik modeli samarali vosita hisoblanadi. Ushbu mexanizm investitsiya salohiyatini kengaytirib, moliyaviy va texnologik resurslarning birlashishini ta'minlaydi. Natijada, transport xizmatlarining sifati va mavjudligi yaxshilanadi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanish kafolatlanadi.

3. Xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimlarini qabul qilish orqali xizmat sifatini va raqobatbardoshlik darajasini oshirish: Transport sohasida xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatishni ta'minlash orqali, nafaqat mahalliy, balki global bozorlarda ham raqobatbardoshlik darajasi oshiriladi. Standartlashtirish va sertifikatlash jarayonlari xizmat ko'rsatish sifatini yagona me'yorlarga muvofiq tartibga soladi, bu esa kompaniyalarning obro'-e'tiborini mustahkamlaydi va yangi mijozlarni jalb qiladi.

4. Mijozlar bilan samarali muloqot va fikr-mulohazalarni tahlil qilish tizimlarini tashkil etish: Transport xizmatlari foydalanuvchilarining ehtiyojlarini aniq anglash va ularni qondirish uchun samarali kommunikatsiya mexanizmlarini yaratish muhimdir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali mijozlarning fikrlarini tizimli yig'ish va tahlil qilish xizmat sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda bozordagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni oshiradi.

5. Barqaror ekologik strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan, yashil energiya va chiqindilarni kamaytirish: Transport sohasining ekologik ta'sirini kamaytirish maqsadida barqaror ekologik strategiyalarni ishlab chiqish lozim. Yashil energiya texnologiyalarini keng joriy qilish, chiqindilarni samarali boshqarish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish orqali transport xizmatlarining uzoq muddatli barqarorligi va ijtimoiy qabul qilinishi ta'minlanadi.

6. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish va raqamlashtirishni kengaytirish, shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash: Zamonaviy axborot texnologiyalari transport tizimini boshqarishda markaziy o'rin tutadi. Raqamlashtirish xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlarga qulaylik yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash transport tizimlarining barqaror va ishonchli ishlashini kafolatlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish transport-logistika tizimining samarali faoliyat yuritishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Tahlillar transport xizmatlarining raqobatbardoshligi infratuzilma sifati, logistika jarayonlarining samarali tashkil etilishi, xizmat ko'rsatish darajasi, xavfsizlik, tezkorlik hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish va raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish transport xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Elektron hujjat aylanishi, GPS monitoring, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslangan boshqaruv yechimlari tashish jarayonlarining aniqligi, shaffofligi va tezkorligini ta'minlash orqali xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

O'zbekiston transport tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, infratuzilma loyihalari va logistika markazlarining rivojlanishi mamlakatning tranzit salohiyatini yanada mustahkamlash uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Xalqaro transport koridorlariga integratsiyalashuv, logistika xizmatlari sifatining oshishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi transport xizmatlari bozorining raqobatbardoshligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- transport-logistika infratuzilmasini izchil modernizatsiya qilish va multimodal tashuvlar imkoniyatlarini kengaytirish;
- transport xizmatlarini boshqarishda raqamli platformalar, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini oshirish;
- logistika markazlari faoliyatini takomillashtirish va ularning xalqaro transport yo'laklari bilan integratsiyasini kuchaytirish;
- transport xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va sertifikatlash tizimlarini keng qo'llash;
- soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash hamda ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish;
- ekologik barqaror va energiya tejamkor transport texnologiyalarini amaliyotga joriy etishni rag'batlantirish.

Transport xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar transport tizimi samaradorligini yuksaltirish, logistika xizmatlari sifatini yaxshilash, tranzit salohiyatini kengaytirish va O'zbekistonning xalqaro transport-logistika makonidagi mavqeyini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi izchil rivojlanish iqtisodiy faollikning oshishi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining kuchayishiga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in an Uncertain Global Economy. World Bank, 2023.
2. World Bank. Logistics Performance Index 2023. World Bank, 2023.

3. International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2023. OECD Publishing, 2023.
4. UNCTAD. Review of Maritime Transport 2024. United Nations Conference on Trade and Development, 2024.
5. OECD. Decarbonising Transport: Pathways and Policy Strategies. OECD Publishing, 2023.
6. Rodrigue, Jean-Paul. The Geography of Transport Systems. 5th ed., Routledge, 2020.
7. Christopher, Martin. Logistics and Supply Chain Management. 5th ed., Pearson Education, 2016.
8. Chopra, Sunil. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. 7th ed., Pearson, 2019.
9. Porter, Michael E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press, 1985.
10. Mentzer, John T., et al. "Defining Supply Chain Management." Journal of Business Logistics, vol. 22, no. 2, 2001, pp. 1–25.
11. Cichosz, Marzenna, et al. "Digital Transformation at Logistics Service Providers: Barriers, Success Factors and Leading Practices." The International Journal of Logistics Management, vol. 31, no. 2, 2020, pp. 209–238.
12. Hesse, Markus, and Jean-Paul Rodrigue. "The Transport Geography of Logistics and Freight Distribution." Journal of Transport Geography, vol. 12, no. 3, 2004, pp. 171–184.
13. Banister, David. Transport Planning. 2nd ed., Routledge, 2002.
14. Button, Kenneth. Transport Economics. 3rd ed., Edward Elgar Publishing, 2010.
15. Rodrigue, Jean-Paul, Claude Comtois, and Brian Slack. The Geography of Transport Systems. Routledge, 2017.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**